Science Uzbekistan

INTERNATIONAL CONGRESS ON MODERN SCIENCES-IV

"Global Prospects for Multidisciplinary Research and Education"

CHIRCHIK STATE PEDAGOGICAL UNIVERSITY

April 07-10, 2025 / Chirchik, Uzbekistan



PROCEEDINGS BOOK

Volume-3

Editors

Prof. Dr. Jabbor Usarov

Prof. Dr. Dostnazar Khimmataliev

Mutabar Meylieva

Kibrio Burieva

ISBN: 979-8-89695-061-5

Adress: Chirchik State Pedagogical University, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi 104 uy Tashkent/Uzbekistan



Session -4 / Hall-5
09.04.2025
Moderator:Radjabova Zuhra Mirzotillayevna
Meeting ID: 813 0348 3436 / Passcode: 080808
Tashkent Local Time: 18:30-20:30
Ankara Local Time: 16:30-18:30

TITLE	AUTHOR(S)	AFFILIATION
MEDIA CREATION IN KINDERGARTEN	A.Sh. Stybayeva K.U. Temirov Химматалиев Дустназар Омонович	Медицинского центра Управления делами Президента Республики Казахстан CHDPU
PSYCHOLOGICAL EMBODIMENT OF A MODERN SCHOOL TEACHER	Mirzaeva Mavluda Akramovna	CHDPU
ENHANCING PRIMARY SCHOOL MATHEMATICS EDUCATION THROUGH PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES: METHODOLOGY, RESULTS, AND STATISTICAL FINDINGS	Anvarjon Yusupov	Denov Institute of business and pedagogy
THE IMPORTANCE OF KNOWING THE ENGLISH LANGUAGE IN PROFESSIONALISM (IN THE MILITARY SECTOR AS AN EXAMPLE)	Samadova Svetlana Jontoshevna	CHDPU
EXPLORING THE PSYCHOLOGICAL PROFILE OF THE MODERN TEACHER	Mirzaeva Mavluda Akramovna	CHDPU
PROBLEMS AND SOLUTIONS IN IMPROVING STUDENTS' PEDAGOGICAL ADAPTABILITY TO THE CREDIT MODULE SYSTEM	Usarov Jabbor Eshbekovich Akmalova Komilaxon Rustam qizi	CHDPU
DUNYO INTEGRATSIYASIDA YOSHLAR VA RAQAMLI MADANIYAT TENDENSIYASI	Baltayeva Munira Shakir qizi	CHDPU
ANALYSIS OF THEORIES REGARDING THE PSYCHIC DEVELOPMENT OF PRESCHOOL CHILDREN	Tarmiza Latipovna Xurvalieva Zuxra Umid qizi Tursunboyeva	CHDPU
TEACHING STUDENTS USING NEUROTECHNOLOGIES	X.A.Kadirova	CHDPU
PEDAGOGICAL COOPERATION IN RESOLVING PEDAGOGICAL CONFLICT	Ashuraliyeva Moxidil Anora Sharakhmatova	CHDPU
STEAM YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QITUVCHILARNING EKOLOGIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA TIME-LAPSE TEXNOLOGIYASINI QO‘LASH USULLARI	Kuchkinov Abdumalik Yuldashovich	CHDPU
JAHON ADABIYOTINI O‘QITISH VOSITASIDA BO‘LAJAK PEDAGOGLARDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLARNI RIVOJLANTIRISH XUSUSIYATLARI	Usmonova Ro‘zixon Bozorovna	CHDPU

All participants must join the conference 10 minutes before the session time.
Every presentation should last not longer than 10-12 minutes.
Kindly keep your cameras on till the end of the session.

Kamila Bahromovna Xasanova	
INTERNATIONAL COOPERATION OF THE FILM INDUSTRY OF UZBEKISTAN	**120**
Vira, Chudakova	
INTERNATIONAL EXPERIENCE OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH ON THE IMPLEMENTATION «OF THE TECHNOLOGY OF FORMING PSYCHOLOGICAL COMPETENCE OF INDIVIDUAL COMPETITIVENESS» IN THE CONTEXT OF INNOVATIVE ACTIVITY OF TRAINING AND ADVANCED TRAINING OF PERSONNEL IN THE FIELD OF EDUCATION, USING DIAGNOSTIC, CORRECTIONAL, DIGITAL AND STEM METHODS, THE SPSS PROGRAM AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE	**124**
Ananda Majumdar	
THE EMERGENCE OF THE KINGDOM OF FRANCE: FROM CAROLINGIAN FRAGMENTATION TO REGIONAL POWER	**140**
Yavuz Selim SAĞLAM, İsmail BOLAT, Merve BOLAT	
INVESTIGATION OF THE PROTECTIVE ACTIVITY OF SYRINGIC ACID AGAINST CADMIUM-INDUCED LUNG TOXICITY IN RATS	**149**
İsmail BOLAT, Yavuz Selim SAĞLAM, Merve BOLAT	
DETERMINATION OF THE EFFECT OF B-CARYOPHYLLENE AGAINST CADMIUMINDUCED EXPERIMENTAL TESTICULAR DAMAGE IN RATS BY VARIOUS METHODS	**160**
Ahmet KÖÇ	
TARİKAT VE DEVLET: OSMANLI- TİMUR HANEDANLARINDA NAKŞİBENDİYYE TARİKATIYLA İLİŞKİLER	**170**
Hatice MUTLU, İlknur SAYAN	
THE EFFECT OF COMPULSIVE WORKING ON EMOTION REGULATION AND EMOTIONAL STABILITY IN HEALTHCARE WORKERS	**183**
VÜQAR NƏZƏROV, CAMAL HACIYEV, VASİF ƏHƏDOV, ƏLİ HƏNİFƏYEV	
FINANCIAL SUPPORT FOR TRANSPORT INFRASTRUCTURE IN ENTREPRENEURIAL ACTIVITY IN AZERBAIJAN	**199**
Salim EKİZ, Durmuş Ali BİRCAN	
GENERATIVE DESIGN AND TRIPLY PERIODIC MINIMAL SURFACE (TPMS) OPTIMIZATION FOR LIGHTWEIGHT AEROSPACE COMPONENTS	**213**
Oğuzhan BELTEKİN, İbrahim TÜRKMEN	
INVESTIGATION OF FIRE RESISTANCE OF BLAST FURNACE SLAG BASED and BORON WASTE ADDED GEOPOLYMER MORTARS	**221**
Ömer Safa GÜR, Mehmet Burhan KARAKOÇ, Ahmet ÖZCAN	
EFFECT OF GPA ON THE STRENGTH OF BFS BASED GEOPOLYMER MORTARS	**233**
Yaşar AYAZ	
PİROFİLLİT AGREGA BETONLARININ YANGIN DAYANIMININ M5P VERİ MADENCİLİĞİ İLE TAHMİN EDİLMESİ	**240**

JAHON ADABIYOTINI O‘QITISH VOSITASIDA BO‘LAJAK PEDAGOGLARDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLARNI RIVOJLANTIRISH XUSUSIYATLARI

Usmonova Ro‘zixon Bozorovna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Maqolada qadriyat, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tavsifi, talaba-yoshlarda milliy iftixor tuyg‘ularini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Olimlarning milliy va umuminsoniy qadriyatlarga oid ilmiy-nazariy qarashlari tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: qadriyat, milliy, umuminsoniy qadriyatlar, ijtimoiy axloqiy, madaniy-ma’naviy, ma’naviyat, madaniyat, an’ana, adolat, tamoyil.

Kirish. Bugungi keskin globallashuv sharoitida ham o‘z milliy, moddiy va ma’naviy boyliklarini asrab-avaylayotgan, boyitib rivojlantirayotgan har qanday millat o‘ziga xos an’analari, urf-odatlari va o‘lmas qadriyatlari bilan boshqa millatlardan ajralib turadi. Mamlakatimizda so‘nggi yillarda ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda amalga oshirilgan islohotlar madaniy hayotning rivojlanishi uchun zamin yaratadi. Mazkur jarayonda milliy qadriyatlarni ulug‘lanishi Vatan tarixini yanada chuqurroq o‘rganish va tadqiq etish imkonini berdi. Ma’naviyat bilan bog‘liq milliy qadriyatlarni talabalar ma’naviy axloqiy tarbiyasida integratsiyalashgan holda amalga oshirish muhim sanaladi. Dunyoda yuz berayotgan tezkor davrda o‘zlikni anglash, asrlar davomida saqlanib kelayotgan qadriyatlarni asrab-avaylash, ulug‘lash barobarida ajdodlar qoldirgan ilmiy merosni o‘rganish ham muhim muammo hisoblanadi. Bu borada jahondagi nufuzli tashkilotlardan biri bo‘lgan Yunesko tomonidan so‘nggi yillarda amalga oshirilgan qator tadbirlar, uzoqni ko‘zlab ishlab chiqilayotgan dasturlar xalqlarning bir-biriga yaqinlashtirish asnosida boy madaniyatni kengroq targ‘ib etishga imkon yaratdi. Bu borada yoshlar ma’naviyatini shakllantirish muhim masala hisoblanadi. Ma’naviyat axloqiy fazilatlar yig‘indisi hisoblanib, ushbu fazilatlar insonga ichki go‘zallik, ma’naviy poklik bag‘ishlaydi, shaxsning qadr-qimmatini oshiradi. Milliy qadriyatlar mahalliy va diniy qadriyatlarga, umuminsoniy qadriyatlar esa ko‘plab millatlar qadriyatiga tayanib shakllanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Dunyoda har bir millat va xalqning o‘zligini anglashi va asrashi, sha’nini ulug‘lashida qadriyatlarning o‘rni beqiyos. XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab jahon xalqlari o‘rtasidagi iqtisodiy va madaniy aloqalar keng ko‘lamda rivojlana boshladi. Bu jarayon uzoq mintaqalar adabiyotlari o‘zaro ta’sirining kuchayishiga, jahon madaniyatining sifat va mazmun jihatdan yangi bosqichga ko‘tarilishi va qaysidir ma’noda yangi adabiyotlarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Zamonga qarab o‘zgarib turadigan bu yangilanish adabiy jarayonda to‘liq ro‘yobga chiqdi. Inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan barcha narsalar, masalan, erkinlik, tinchlik, adolat, ma’rifat, haqiqat, yaxshilik, moddiy va ma’naviy boyliklar va boshqalar qadriyat hisoblanadi.

Q.Nazarov “**qadriyat –** voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy axloqiy, madaniy-ma’naviy ahamiyatini ko‘rsatish uchun qo‘llanadigan tushuncha” - deya ta’riflaydi. Inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan barcha narsalar, erkinlik, tinchlik, adolat, ijtimoiy tenglik, ma’rifat, haqiqat, yaxshilik, go‘zallik, moddiy va ma’naviy boyliklar, an’ana, urf-odat va boshqalar qadriyat hisoblanadi [6]. Qadriyatlar xalqimizning bebaho boyligi, jamiyatimiz, millatimiz, davlatimiz taraqqiyotining asosiy omillaridan biri. Shunday ekan, azal-azaldan xalqimizga xos bo‘lgan milliy qiyofani shakllantiruvchi mardlik, tantilik, mehmondo‘stlik, saxovatpeshalik, o‘zaro hurmat, birodarlik, bag‘rikenglik, mehribonlik

kabi betakror fazilatlar har bir yurtdoshimiz tomonidan amalda e'zozlanishi, asrab-avaylanishi, ijobiy jihatlar qo'shib boyitilishi, rivojlantirilishi kelajagimiz uchun eng muhim shartdir.

"Qadriyat deyilganda inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan millat, elat va ijtimoiy guruhlarning manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan va ular tomonidan baholanib, qadrlanadigan tabiat va jamiyat ne'matlari, hodisalari majmuini tushunmog'imiz lozim" [1].

"Qadriyatlar-jamiyatda kishilar o'rtasida obro'ga, e'tiborga, hurmatga, nufuzga ega kishilar, munosabatlar, holatlar, moddiy narsalar va ma'naviy boyliklar majmuasi" [3]. "Qadriyat inson va jamiyat ma'naviyatining tarkibiy qismi, olamdagi voqealar, hodisalar, jarayonlar, holatlar, sifatlar, talab va tartiblarning qadrini ifodalash uchun ishlatiladigan tushuncha"[5]. Milliy qadriyatlar – millat uchun ahamiyatga ega bo'lgan etnik jihat va xususiyatlar bilan bog'liq xoslik shaklidir. Dunyoda o'ziga xos qadriyatlari bo'lmagan millat yo'q. Milliy qadriyatlar millatning tarixi, yashash tarzi, ma'naviyati, madaniyati bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi.

"Qadriyat - voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma'naviy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llanadigan tushuncha"[6]. Bu esa, o'z navbatida, qadriyatlarning ahamiyatini ko'rsatmoqda. Shuningdek, talabaning qadriyati vijdoni va vazifalariga ongli ravishda bajarishida namoyon bo'lsa, uning ma'naviy kamoloti ham o'z-o'zini tarbiyalashga yo'naltiriladi. Qadriyat bu - inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan millat, elat va ijtimoiy guruhlarning manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan va ular tomonidan baholanib, qadrlanadigan tabiat va jamiyat ne'matlari, hodisalari majmuini ifodalaydi.

B.Mirkomilovning tadqiqot ishida qadriyat – voqelikdan muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-ahloqiy, madaniy-ma'naviy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llanadigan tushuncha sifatida tavsiflangan. Ijtimoiy fanlarning qaysi sohasida qadriyatga doir tadqiqot olib borilgan bo'lsa, bu tushunchaga shu jihatdan ta'rif berishga intilish kuzatiladi. "Qadriyat", adabiyotlarda qayd etilganidek, falsafiy tushuncha bo'lib, u shaxs faoliyatining mazmunini ochib berishga xizmat qiladi. Bizningcha, yuqorida keltirib o'tilgan fikrlar "qadriyat" tushunchasining mohiyatini to'laqonli ifoda eta olgan. Zero qadriyat sifatida nafaqat ma'naviy, balki moddiy omillar ham e'tirof etiladi. Demak, yuqorida bildirilgan fikrlardan anglanadiki, qadriyat insoniyat hayotining tarkibiy unsurlaridan biri bo'lib, u moddiy va ma'naviy omillarning ijtimoiy taraqqiyot jarayonidagi ahamiyatliligi insonlar tomonidan qadrlanishini ifoda etadi. Qadriyat – tevarak-atrofdagi narsalarning, kishining jamiyat uchun ijobiy yoki salbiy ahamiyatini ko'rsatuvchi tushuncha bo'lib, axloqiy tamoyillar, g'oyalar, yo'l-yo'riqlar va maqsadlarda ifodalangan ana shu tushunchaga baho berish mezoni va usullari hisoblanadi. Qadriyatlarga umuminsoniy qadriyatlar – ma'lum bir axloq me'yorlari, ilg'or, taraqqiyparvar madaniy meros kiradi. Qadriyat – qadr qimmat ma'nosini anglatib, inson uchun qadrli bo'lgan barcha narsa va hodisalar (predmet va jarayonlar) majmuidir. Qadriyatlar faqat o'tmish uchun qadrli bo'lmasdan, balki hozirda ham, kelajak taraqqiyotida ham qadrli bo'lib, ular jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta'sir qiladi, qadriyatlarning muhim bo'g'inlaridan biri ma'naviy qadriyatlar sanaladi. Ma'naviy qadriyatlar o'z navbatida badiiy, diniy, estetik, falsafiy, axloqiy, ma'rifiy, madaniy qadriyatlar majmuasidir [4]

H.B.Nurbayevaning izlanishlarida talabalarda milliy qadriyatlarni rivojlantirishning pedagogik-psixologik modeli oiladagi ota-onaning "shaxsiy namuna"si "o'z-o'zini rivojlantirish ehtiyojlarini qondirish"ga bog'liq ravishda milliy o'zlikni anglashga hamda tolerantlikni shakllanishiga olib kelishi muhimligi tufayli etnik birdamlik va milliy mansublik hissini psixologik xususiyatlar bilan integratsiyalash asosida takomillashtirilgan. Talabalarda milliy qadriyatlarni rivojlantirishning psixologik vositalarga o'zini o'zi anglash, tolerantlikni rivojlantirish, o'z-o'zini rivojlantirish ehtiyojlarni qondirish va etnik mansublikni qaror toptirish kiradi. Talabalarda milliy qadriyatlarni rivojlantirishning pedagogik vositalari esa, oila muhitida namuna obrazlari, o'quv-tarbiya faoliyatni


to'g'ri tashkil etish, milliy ramz va belgilarni takomillashtirish, internet olamida mashhurlarning milliy qadriyatlarni targ'ib etishlari orqali tarkib topadi. [7]

Z.T.Saliyevaning ilmiy ishida pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarida ma'naviy madaniyatni rivojlantirish yondashuvlari aniqlangan, ya'ni yaxlit yondashuv – talabalarni biologik va psixik, ijtimoiy va ma'naviy, anglash va o'z-o'zini anglash, ratsional va irratsional birlik sifatida tushunish; talabalarga pedagogik qo'llab-quvvatlashga ehtiyoj sezuvchi, individual munosabatda bo'lishni talab etuvchi shaxs deb qarash; bunda yuksak ijtimoiy qadriyatlarning inson shaxsini rivojlantirishdagi o'rni, har bir talabaning individualligi va takrorlanmas ekanligi hurmat qilinishi; uning ijtimoiy huquq va erkinliklari e'tirof etilishi; tarbiya maqsadi, obyekti, subyekti, samaradorligi ko'rsatkichlari va natijalari talabaning shaxsiyatida namoyon bo'lishi bilan tavsiflanadi [8]. Dars jarayonida talabalarning fikrini diqqat bilan tinglash, ularga yaxshi va e'tiborli munosabatda bo'lishi, rivojlanayotgan shaxs o'zini himoyalangan, kerakli, ahamiyatli his etishi; obyektiv yagona maqsaddagi o'qituvchi va talabalarning har tomonlama o'zaro ta'siri uchun psixologik qulayliklar yaratilishi maqsadga muvofiq; qadriyatli-mazmunli yondashuv – talabada o'z hayotining mazmunini anglashi uchun zaruriy shart-sharoit yaratishga, uning tabiat, sotsium, madaniyat bilan muloqotida yuzaga keladigan shaxsiy fikrlarini tarbiyalashga yo'naltirilishi lozim.

X.T.Ismoilovaning fikricha "ma'naviyatni rivojlantirish jarayonini tashkil etish va amalga oshirishdan maqsad, subyektning ustunligi, natija va uning samaradorliligini asosiy mezonlar sifatida belgilash hamda jarayonni uning barcha ishtirokchilarini to'laqonli rivojlanishi uchun insonparvarlashtirish va tabaqalashtirish prinsiplariga ustuvorlik berish lozim". Yoshlar ma'naviy faoliyatning yuqori cho'qqisiga erishishida, evristik xarakterdagi vazifalar, topshiriqlar, ish o'yinlari kabi shakllardan keng foydalanib, tarbiya usullarini o'zlarining individual harakati, o'z ustida mustaqil ishlashi hayotiy faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni mustaqil hal eta olish kabi omillarga e'tibor qaratish lozimligi tufayli talabalarni faqatgina tahlil qilish va sintezlash operatsiyalarini bajarishga undash bilan chegaralanib qolmasdan, balki mavhumlashtirish, algoritmlashtirish, turkumlash, shartli belgilar yordamida ifodalash, sabab oqibatli aloqadorlikni aniqlash, tahlil etish, sintezlash, tizimlashtirish, modellashtirish kabi yuksak darajali tafakkurlash operatsiyalari ham talab etildi [2;21-bet]. Jahon adabiyoti vositasida talabalarning kasbiy va shaxsiy xususiyatlari, qobiliyatlarini hisobga olish hamda qiziqishlarini ta'minlash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Mashhur nemis shoiri Gyote bu o'zining ijobiy fikrini bildirib, birinchi marta "jahon adabiyoti" atamasini qo'lladi.

Natijalar. Qadriyatlar jamiyatda kishilar o'rtasida obro'ga, e'tiborga, hurmatga, nufuzga ega kishilar, munosabatlar, holatlar, moddiy narsalar va ma'naviy boyliklarda namoyon bo'ladi. "Qadriyat inson va jamiyat ma'naviyatining tarkibiy qismi, olamdagi voqealar, hodisalar, jarayonlar, holatlar, sifatlar, talab va tartiblarning qadrini ifodalash uchun ishlatiladigan tushuncha"- deyish mumkin. Ya'ni qadriyat voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma'naviy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llanadigan jarayondir. Demak, qadriyat har bir shaxs uchun qadrli bo'lgan urf-odat va an'analar, hayotiy tamoyillar deb xulosa qilish mumkin. O'z navbatida qadriyatlar milliy va

umuminsoniy qadriyatlarga bo‘linadi (1-rasm).



1-rasm. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar

Muhokama. Tabiiyki, millatlarning bebaho qadriyatlari shunchaki bir-ikki yoki o‘n-yigirma yil ichida paydo bo‘lib qolmaydi. Chunki xalq diliga chuqur o‘rnashgan biror-bir muhim urf-odat, kiyim-kechak, kundalik hayot tarziga xos alohida “narsa”ning an’anaga, ayniqsa, qadriyatga aylanishi uzoq asrlarni talab qiladi. Yillar, asrlar davomida ma’lum bir qarash, odat, tushuncha, tajribalar shafqatsiz zamonlar, bir necha avlodlar sinovidan muvaffaqiyatli o‘tsagina yanada sayqal topadi, rivojlanadi, xalq hayotida o‘z o‘rnini egallaydi. Zamonlarning baland-past dovonlaridan o‘tgan sari qadriyatlar insonlarni tinchlik-totuvlikka, mehr-oqibatga, ezgulikka, hamjihatlikka chorlaydigan katta ma’naviy kuchga aylana borgan. Bunday qadriyatlar millatning kundalik hayotida, madaniyati va ma’naviyatida, ongu shuurida, o‘zaro madaniy muloqotida, boshqalarga bo‘lgan munosabatida, qisqasi, har bir tashlagan qadamida o‘z ifodasini topadi. Shuning uchun ham mutafakkirlar qadriyatlar millat ma’naviyatining ko‘zgusi deyishgan.

Manbalar tahlili asosida umuminsoniy adabiyotning o‘ziga xos xususiyatlari, asosan, quyidagi tamoyillarga tayanishi asoslandi:

- milliy o‘ziga xoslikni saqlagan holda barqaror umumiy xususiyatlarga ega bo‘lish;
- o‘z milliy an’analariga, shuningdek, o‘zga makon va zamon munosabatlarida bir-biriga bog‘lanmagan adabiyotlarga tayanish;
- jamiyat ongida hamda badiiy an’analar zamirida umuminsoniy qadriyatlarni qaror toptirish;
- adabiyotni milliy ruh negizida tushuniladigan umuminsoniy qadriyatlarga qaratish va yo‘naltirish

Xulosa. Milliy qadriyatlar amaliy jihatdan keng ma’noda talabaning barcha xatti-harakati, faoliyati, xulqi, odobi, tengdoshlarilari bilan bo‘lgan munosabatlarida namoyon bo‘lsa, tor ma’noda shaxslarning falsafiy, diniy, siyosiy, axloqiy, huquqiy qarashlarida, tafakkuri, dunyoqarashlarida namoyon bo‘ladi. Bugungi axborot asri rivojlanib borayotgan davrda chinakam ma’naviyatli va ma’rifatli pedagoggina inson qadrini bilishi, o‘z milliy qadriyatlarini, milliy o‘zligini anglash, erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o‘ziga munosib o‘rin egallashi uchun fidoyilik bilan kurasha olishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Farmonova M. Qadriyatlar – ma’naviy kamolot asosi. Ilmiy – uslubiy qo‘llanma. – T.: “Tasvir nashriyot uyi”, 2019. – 36 b.

2. Ismoilova X.T. Tabaqalashgan yondashuv asosida talabalar ma'naviyatini diagnostika qilish mexanizmlarini takomillashtirish. Avtoref. p.f.f.d. (PhD). – T.: 2021. – 50 b.

3. Jalolov A., Xonnazarov Q. Mustaqillik izohli ilmiy-ommabop lug'ati. – T.: "Sharq", 1998. B. – 279 b.

4. Mirkomilov B. Talabalarda badiiy qadriyatlarga qiziqishni rivojlantirish. Avtoref.p.f.f.d.(PhD). – T.: 2019. – 59 b.

5. Nazarov Q. Ma'naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug'ati. "T.:2010.- 760 b.

6. Nazarov Q. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti T.:wwwziyouz.com.kutubxonasi.

7. Nurbaeva H.B. Oliy talim muassasalari talabalarida milliu qadriuatlarni rivojlantirishning pedogogik psixologik xususiuatlari. Avtoref.p.f.f.d.(PhD). T.: T.:2024-55.

8. Salieva Z.T. Pedagogika oliy ta'lim muassasasi talabalarining ma'naviy madaniyatini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish. Avtoref. p.f.d. (DSc)T.:2017-66 b.